

**O'ZBEKISTONNING 2030-YILGACHA BO'LGAN DAVRDAGI  
RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISH  
BOSQICHLARI**

**Faxriyev Doniyor Erdon og'li**

**Mirzo Ulugbek nomidagi Ozbekiston Milliy Universiteti**

**Magistratura. Makroiqtisodiyot yonalishi.**

**The development strategy of Uzbekistan until 2030 and the stages of its  
implementation**

**Fakhriyev Daniyori Erdon ugli**

**National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**

**Master's. Macroeconomics ignition.**

**Стратегия развития Узбекистана до 2030 года и этапы ее реализации**

**Фахриев Данияр Эрдон угли**

**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

**Магистр. Зажигание макроэкономики.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi haqida hamda uni amalga oshirish istiqbollari borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Rivojlanish, strategiya, Harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, maqsad, vazifa.

**Abstract.** This article presents thoughts and opinions about the development strategy of Uzbekistan until 2030 and the prospects for its implementation.

**Key words.** Development, strategy, Action strategy, development strategy, goal, mission.

**Аннотация.** В данной статье представлены мысли и мнения о стратегии развития Узбекистана до 2030 года и перспективах ее реализации.

**Ключевые слова.** Развитие, стратегия, Стратегия действий, стратегия развития, цель, миссия.

Bugun yurtimiz hayotining barcha jabhalarida o'zgarish, islohotlar epkini kuzatilmoqda. Yangi zamon ruhi kirib bormagan, inson manfaatiga ustuvor ahamiyat qaratilmayotgan biror-bir soha yo'q. Ayniqsa, so'nggi yetti yildagi tadrijiy rivojlanish bosqichlariga nazar solsak, ularning mazmun-mohiyatida xalqimiz xohish-irodasi, yillar davomida fuqarolarning tinchlik-xotirjamligiga to'siq bo'layotgan og'riqli muammolar yechimi turgani yanada ahamiyatlidir. Bir so'z bilan aytganda, bunday tarixiy evrilishlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Mazkur islohotlar zahirida aniq va rejali maqsad, qat'iyat, kuchli siyosiy iroda mujassam.

Mamlakatimizning uchta strategik taraqqiyot dasturi:

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi;

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi;

“O'zbekiston – 2030” strategiyasi “Kun tartibi – 2030”ga uyg'un bo'lib, O'zbekistonga tegishli bo'lgan 16 ta global Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan milliy maqsad va vazifalarni to'la qamrab olgan.

Masalan, “O'zbekiston – 2030” strategiyasiga e'tibor qaratsak, tahlillar, uning 5ta yo'nalishi BMT tomonidan belgilangan 16ta Barqaror rivojlanish maqsadlarini to'la qamrab olishini ko'rsatadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida 2023 yilning o‘zida qabul qilinishi rejalashtirilgan 25 ta qonun loyihasi, 39 ta Prezident farmoni va qarorlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar (jami – 118 ta) Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning zarur tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsad-vazifalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘ziga xos “Yo‘l xaritasi” vazifasini o‘tashini hamda Strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarining eng ustuvor vazifasi ekanidan ham dalolat beradi.

2023 yil 30 aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilingani Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur hujjat yurtimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va ulkan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 11 sentyabrida imzolangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga tayanch vosita bo‘lib xizmat qildi deyish mumkin. Zero, farmon muqaddimasida “yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda”, deb alohida ta’kidlangani bejiz emas. Natijada yurtdoshlarimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash ustuvor maqsad sifatida belgilangani qayd etildi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri farovonlikka erishish uchun shart-sharoit yaratish. Bunga aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiyotni rivojlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va ish o‘rinlarini yaratish orqali erishiladi.

Dasturda tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyatli rivojlanish va yuqori natijalarga erishish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonning buguni va ertasi uchun muhim bo‘lgan ushbu hujjatda ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Dasturda ta‘lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarini rivojlantirish bilan birga yoshlar va xotin-qizlarga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish g‘oyasi ilgari surilgan. Strategik maqsad – mamlakat aholisiga yuqori sifatli xizmatlardan foydalanish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlarini ta‘minlashdan iborat.

Ushbu hujjatda belgilangan sud-huquq islohotlari haqida gapirganda, uning 4.2-bandiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Bu O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari ustunligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni sud-huquq islohotlarining asosiy mezoniga aylantirishni o‘z ichiga oladi va ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolarni tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga qisqartirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, sudlar va tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barobar oshirish ko‘zda tutilgan.

Milliy maqsad va vazifalar o‘zida 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasida jami 17 ta maqsad va ular doirasida amalga oshiriladigan vazifalarni qamrab olgan.

Jumladan, amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida 2030 yilgacha O‘zbekistonda o‘ta qashshoqlikni tugatish, kam ta‘minlangan aholi sonini hozirgiga nisbatan ikki baravarga kamaytirish rejalashtirilgan.

Sogʻlom turmush tarzini taʼminlash maqsadida esa aholi oʻrtasida yurak-tomir, onkologik, qandli diabet va surunkali respirator kasalliklar tufayli bevaqt oʻlimlar sonini 30 foizga qisqartirish, shuningdek 2025 yilgacha yoʻl-transport hodisalari sonini ikki baravarga qisqartirish rejalashtirilgan. Shuningdek, umumqamrovli va sifatli taʼlimni taʼminlash hamda barchaga butun umri davomida taʼlim olish imkoniyatini ragʻbatlantirish maqsadi boʻyicha 2030 yilgacha oʻqituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida xalqaro hamkorlik qilish orqali oʻqituvchilar sonini jiddiy ravishda koʻpaytirish moʻljallangan.

Yangi Oʻzbekistondagi islohotlar falsafasi ham oʻz navbatida “inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi” hamda 2030-yilgacha mamlakatning barcha belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini taʼminlash gʻoyalari asoslangan.

Oʻtgan davr mobaynida mamlakatda bu borada keng koʻlamli va kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu boradagi tajribasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ham eʼtirof etildi. Avvalambor, Barqaror rivojlanish maqsadlari va bu boradagi tegishli vazifalar yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 360 dan ziyod qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida oʻz aksini topdi.

Shu oʻrinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid normalar kiritilganligi borasidagi quyidagi maʼlumotlarni keltirish oʻrinli, deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. T. 1. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson maʼnfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bagʻishlangan tantanali marosimidagi maʼruzasi. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.

4. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-maqsd-vavazifalar\\_532507](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-maqsd-vavazifalar_532507)

5. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-yangi-ozbekiston-uchun-yangi-davr\\_537810](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-yangi-ozbekiston-uchun-yangi-davr_537810)